

TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILARI VA AMALIY JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20536835>

Boratova Muxtasam G`aniyevna

SamDU, dotsent, p.f.f.d (PhD), tel-+998933117119, Email:

muxtasam.boratova@mail.ru

G`afforova Mashhura Odil qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

Email: gafforovamashxura66@gmail.com

Mirzamurodova Shabnam Sherzod qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU talabasi

ПРИНЦИПЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

PRINCIPLES AND PRACTICAL ASPECTS OF FORMING ECOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS

Annotatsiya

Mazkur maqolada globallashuv jarayonida ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik inqirozlarni oldini olishda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli, shuningdek, oliy ta'lim tizimida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish tamoyillari va uning amaliy jihatalari haqida me'oriy hujjatlar asosida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so`zlar

Globalashiv, ekologik muammo, ekologik inqiroz, kishilik madaniyati, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik bilim, ekologik madaniyat, fanlararo bog`liqlik, tizimlilik va uzluksizlik, integratsiyalashgan yondashuv, majmuaviy (kompleks) yondashuv, ekologiyalashtirish, ekovolontyor talabalar, ekoplogging, ekoaksiya, ekochempionat.

Аннотация

В данной статье представлена информация о роли экологического образования в устранении экологических проблем и предотвращении экологических кризисов в процессе глобализации, а также о принципах и практических аспектах формирования экологической культуры среди

студентов в системе высшего образования на основе нормативных документов.

Ключевые слова

Глобализация, экологическая проблема, экологический кризис, культура человека, экологическое образование, экологические знания, экологическая культура, междисциплинарная связь, систематичность и преемственность, комплексный подход, экологизация, студенты-эко-волонтеры, эко-плоггинг, эко-действие, эко-чемпионат

Abstract

This article presents information on the role of environmental education in addressing environmental problems and preventing environmental crises in the context of globalization, as well as the principles and practical aspects of fostering environmental awareness among students in higher education based on regulatory documents.

Keywords

Globalization, environmental problem, environmental crisis, human culture, environmental education, environmental knowledge, environmental culture, interdisciplinary connection, consistency and continuity, integrated approach, environmentalization, student eco-volunteers, eco-plogging, eco-action, eco-championship.

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida dunyoda inson faoliyatining tabiatga taʼsirini ortib borishi natijasida yuzga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, maʼnaviy va ekologik muammolarni aniqlash, ularni kelib chiqish sabablarini oʻrganish va bartaraf etish zamonaviy sivilizatsiyaning eng dolzarb muammosi sifatida qaralmoqda. Bu borada koʻpgina xalqaro tashkilotlar va xalqaro doiradagi dastrular asosida qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit boʻyicha 2021-yildagi 5-sammitida UNEP¹ (United Nations Of Environment Programme) dasturida: "...tabiatga boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik beqaror yondashuvlarni oʻzgartirmaslik, salomatlik bilan bogʻliq pandemiyalarni yuzaga kelishiga, mavjud muammolarni kuchayishiga sabab boʻlishi taʼkidlandi.[11-e]

Jahon ilm-fanida ekologik muammolar globall darajaga koʻtarilishi insoniyat oldiga tabiatni asrashga qaratilgan yuksak masʼulaytli vazifalarni qoʻyadi. Jamiyat taraqqiyoti asnosida tabiatni asrash, insonlarni yashashi uchun ekologik xavfsiz

¹ <https://www.un.org/ru/ga/unesp/index.shtml>.

makon yaratish uchun esa aholi ekologik bilim, ekologik madaniyat va yuksak ekologik ma'naviviyatga ega bo'lishi ayni zaruratdir.

Adabiyotlar tahlili: Ekologik bilim, ekologik madaniyat va yuksak ekologik ma'naviviyat to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda, xususan, "Avesto"da, Konfutsiy ta'limotida, diniy kitoblarda (masalan, Qur'oni Karimda, Hadislarda) keltirilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalarida, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy meroslarida ham tabiat muhofazasi va ekologik tarbiya haqida ahamiyatli fikrlar o'z aksini topgan. Sharq uyg'onish davrining yetuk mutafakkirlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy ("Kitob al-mabodi alinsonia"); Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ("Kitab surat al-arz" "Yerning surati" yoki "Geografiya"); Abu Rayhon Beruniy ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"); Ibn Sino ("Aqliy ilmlar tasnifi") asarlarida va o'rta asrlarda Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Sab'ai Sayyor" kabi dostonlarida inson ruhiyati nabotot va hayvonot olami bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin [4;96].

Talabalarda ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirish ekologik muammolarni oldini olishdagi muhim omil hisoblanib, yoshlarning kelajak istiqboli uchun didakik jarayonda ekologik ta'lim-tarbiyani zamon talaba darajasida tashkil etish davr talabi darajasiga chiqqanligi sababli ko'pgina olimlar tomonidan bu masala yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda Yu.Shodimetov, B.Ziyomuxamedov, A.Ergashev, B.Alixanov kabi olimlarning asalalarida ekologiyaga ijtimoiy-siyosiy yondashuv, tabiatga munosabat qadriyatlarini, ekologik muammolarni nafaqat mahalliy, balki global darajada siyosiy talqini va tahlili masalalariga doir qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari S.M.Mamashakirov, A.N.Nigmatov, A.R.Malikova, O'.G'.Tilavov, E.V.Qodirov, J.Xolmuminov, E.J.Ikromov, Z.SH.Yazdonov, V.M.Zaxarov, I.Xolliyev, N.Isoqulova, H.S.Xushvaqtova, B.M.Ochilova va boshqalarning tadqiqot ishlarida ham bevosita ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik tafakkur, ekologik bilim, ekologik madaniyat va ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari o'rganilgan.

MDH davlatlari olimlaridan N.D.Andreyeva, N.Vinokurova, D.S.Lixachyov, N.N.Moiseev, V.Nikolina, N.Sersek, A.I.Jirov, S.N.Glazachev, E.V.Girusov, J.K.Jarmenovalar tahsil oluvchilarda ekologik dunyoqarash, ekologik madaniyat, ekologik kompetensiyalarni shakllantirish hamda ekologik ta'lim berishning ilmiy qoidalariga doir ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijiy davlatlarda ekologik ta'lim dasturlarida atrof-muhit muhofazasi, ekotizimni tadqiq etishda integratsion yondashuv, ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning sifati va samaradorligini oshirish masalalari

J.B.Zedler, J.C.Callaway, F.C.Leeming, M.K.Cobern, W.O.Dwyer, va boshqada olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Tadqiqot usullari: mazkur mavzu doirasida to'plangan ma'lumotlar kuzatish, adabiyotlar tahlili, qiyosiy, tanqidiy, sinergetik usullar yordamida o'rganildi.

Metodologiyasi: Respublikamizda ham ekologik ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish, ta'lim oluvchilarning ekologik madaniyati, ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida 2023-2030-yillarda barqaror turmush tarzini targ'ib qilish Milliy dasturda tabiiy va boshqa resurslarni tejash, xalqaro hamjamiyat rivojining tabiat bilan uyg'unligini ta'minlash, barqaror turmush tarzini shakllantirish va keng qamrovli ma'rifiy, tashviqot ishlarini olib borish hamda yoshlar tashabbusini qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq masalalar qamrab olingan.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5763-son, 2019-yil 30-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-son, 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-son Qarori, 2020-yil 8-avgustdagi "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.05.2025-yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-184-son, 25.03.2026-yildagi ""Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son Qarorlari [12-e] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlar asosida ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiyani, xususan ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlanishi muayyan tartibda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, ya'ni, oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar ta'limi va kasbiy ta'lim tizimida, oliy ta'lim tizimida va oliy ta'lim tizimida keyingi

faoliyat turlarida – korxonada va tashkilotlarda o`ziga xos yo`nalishlarda amalga oshiriladi. Ekologik ta`lim-tarbiya ta`lim tizimining boshlang`ich bosqichida asosan turli tadbirlar va fanlar mazmuniga integratsiya qilingan holda amalga oshiriladi. Ekologiyaga oid dastlabki ilmiy-nazariy tushunchalar 11-sinf biologiya darsligi tarkibida tizimli ravishda o`rgatiladi. Kasbiy ta`lim va oliy ta`lim muassasalarida esa asosan ekologiya ixtisosligga mos ta`lim yo`nalishlarida va ayrim ekologik mazmundagi turdosh ixtisoslik yo`nalishlardagina o`qitiladi xalos. Bu holat keng xalq ommasi, aholining asosiy qismini ekologik bilim va madaniyatga ega bo`lmay qolishiga olib keladi. Ekologik bilim va madaniyatni egallamagan insonda tabiatga munosabat to`g`ri shakllanmaydi, unday inson tabiat boyliklarini ayovsiz ishlatadi, tiriklikka – o`simlik va hayvonlarga shafqatsizlarcha munosabatda bo`lishiga olib kelsa, tuproq, suv, havoga turli chiqindilarni me`yorsiz tashlashiga sababchi bo`ladi.

Bundan ko`rinib turibdiki, O`zbekiston Respublikasidagi barcha turdagi ta`lim muassasalarida, xususan oliy ta`lim muassasalarida ham “Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida”gi Qonunning 4-moddasida nazarda tutilgan “...barcha turdagi ta`lim muassasalarida ekologiya o`quvining majburiyligi”ga oid talablar yetarli darajada bajarilmay kelmoqda. Ta`lim tizimida amaldagi davlat ta`lim standartlari, malaka talablari, o`quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko`nikma, malaka va kompetensiyalar bilan yetarli darajada boyitilmagan. Hozirgacha ham ta`lim muassasalarida ekologik ta`lim-tarbiya yo`nalishida ilgo`r milliy va xorijiy tajribalarni o`rganish va milliy ta`lim tizimiga tadbiriq qilish hamda shu asosda ta`lim oluvchilarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishning aniq tizimi va parametrlari ishlab chiqilmaganligi, tadqiq etayotgan ishimizning dolzarbligini belgilab beradi. Qachonki ta`lim tizimi mamlakatimiz aholisida, ta`lim oluvchilarda, ayniqsa, talabalarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishga erishilsagina “jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtomoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg`unlashtirish”ga erishish asnosida yurtimiz tabiatiga, uning boyliklariga to`g`ri va oqilona munosabatni tashkil etishimiz mumkin. [1]

Davlatimiz Prezidentining 15.05.2025-yildagi “2030-yilgacha bo`lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PQ-184-sonli Qarori aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo`yicha ko`rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ushbu yo`nalishda davlat organlarining fuqarolar, nodavlat-notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o`zaro hamkorlikdagi sa`y-harakatlarini hamda O`zbekiston ekologik partiyasining fuqarolar ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo`llab-quvvatlash maqsadida o`z vaqtida qabul qilingan qaror hisoblanadi. Ushbu qarorda 2030-yilgacha yurtimiz

aholisining barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni muayyan ko`rsatkichlarga chiqarish zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan;

a) 3,3 million nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ekologik madaniyatning shakllanishi;

b) 4,2 million nafar umumiy o'rta ta'lim tizimi tashkilotlari o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyaning mustahkamlanishi, ekologik madaniyatning yuksalishi;

c) 400 ming nafar o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi tashkilotlari o'quvchilarida ekologik ta'lim-tarbiyaning mustahkamlanishi, ekologik madaniyatning yuksalishi;

d) 1,9 million nafar oliy ta'lim tizimi tashkilotlari talabalarida ekologik madaniyatning yuksalishi;

e) 90 foiz davlat organlari, korxonalar va muassasalari xodimlarida ekologik madaniyatning yuksalishiga erishish zarur.

Qarorning III-bobi 4-bo'lim, 7-bandida oliy ta'lim tizimi tashkilotlarida ekologik madaniyatni yuksaltirishning asosiy mazmuni va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilar"

1) ixtiyoriylik asosida barcha oliy ta'lim muassasalari talabalarini birlashtiruvchi O'zbekiston ekovolontyor talabalar harakatini tashkil etish va uning doimiy faoliyat yuritishini yo'lga qo'yish;

2) bakalavr va magistratura bosqichlarining ekologiya yo'nalishlaridagi o'quv adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni atrof-muhitni asrab-avaylashga bag'ishlangan mavzular bilan boyitish choralari ko'rish;

3) har yili oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida «Ekologiya bilimdoni», «Ekologik madaniyat targ'ibotchisi», «Eng faol ekovolontyor» va «Yilning eng yaxshi ekologiya himoyachisi» kabi turli nominatsiyalar bo'yicha tanlovlar tashkil etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

4) 5 iyun – Butunjahon atrof-muhit kuni munosabati bilan har yili talabalar o'rtasida mamlakatimizdagi dolzarb ekologik masalalar muhokamasiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy forum o'tkazilishini yo'lga qo'yish;

6) talabalarni dolzarb ekologik madaniyat va ekologiya muammolariga bag'ishlangan magistrlik dissertatsiyalari tayyorlashga, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishga keng jalb qilish;

7) oliy ta'lim muassasalarining davriy, ilmiy nashrlarida, shuningdek, gazeta va jurnallarda ekologik muammolarga bag'ishlangan alohida ruknlar ochish, unda professor-o'qituvchilar va talabalarining maqolalarini muntazam chop etish amaliyotini yo'lga qo'yish;

8) har bir oliy ta'lim muassasasining veb-saytida talabalar ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan «Ekofaol talabalar» degan alohida bo'lim

tashkil etish va unda tegishli ta'lim muassasasining talabalari tomonidan ekologik madaniyatni yuksaltirish, atrof-muhitni asrab-avaylash va muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni doimiy joylashtirib borish;

9) Ekologiya vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi muassisligida ekologiya yo'nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan O'zbekiston va xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan vatandosh talabalar hamda olimlarni birlashtiruvchi «Ekolog olimlar hamjamiyati» nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash;

10) oliy ta'lim muassasalarida ekoklublar tashkil qilish;

11) yoshlarning ekologiya yo'nalishidagi innovatsion loyihalarini rag'batlantirish maqsadida startap loyihalar tanlovini e'lon qilish;

12) ekologik madaniyat sohasida xorijiy tillarni mukammal biladigan kadrlar tayyorlash maqsadida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish;

13) davlat oliy ta'lim muassasalarida andragogika usulida barcha qiziquvchilar uchun beg'araz, ochiq ma'ruzalar o'tkazish va ularni Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirish [2]

Davlatimiz rahbari tomonidan 2026-yil 25-martda imzolangan "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida ekoogik ta'lim, ilm-fan v targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar tog'risida"gi qaroriga ko'ra, endiikda ekologik madaniyat targ'iboti respublikamizda umummilliy darajasiga ko'tarildi. Mazkur loyihada avvalo aholi o'rtasida ekologik odatlarni shakllantiish, ta'lim muassasalarifaoliyatini barcha bosqichlarda xalqaro standartlar hamda ekologik me'yorlar asosida yo'lga qo'yish vazifalarini kechikmay amalga oshrish ko'zda tutilgan. Shuningdek, "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida maxsus ekologik bilim, malaka, ko'nikmalar bilan bir qatorda ekologik kompetensiyalarga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni doimiy malakasini oshrib borish maqsad va vasifalarini oshrish belgilab berilgan [3]. Ushbu qaror mamlakatimizda ekologik madaniyat targ'iboti, ekologik ta'lim taraqqiyotini rivojlantirish, aholining atrof-muhitga nisbatan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirishga yanada kengroq sharoit yaratadi. Bu esa o'z navbatida butun dunyoda dolzarb bo'lgan tabiat muhofazasi, uning tabiiy va moddiy ne'matlaridan oqilona foydalanish asrab-avaylash, kelajak avlodga munosib tabiiy meros qoldirishga asos bo'ladi.

Butun dunyo bo'ylab jiddiy tashvish tug'dirayotgan hozirgi global ekologik vaziyatlar sayyoramizdagi tabiiy resurslarini saqlab qolish, biosferani asrash uchun aholi o'rtasida ekologik bilimlardan xabardorlikni oshirish va ekologik

madaniyatni rivojlantirish zaruratini anglatmoqda. Bu global ekologik muammolarni yechimini topishda ta'lim ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ko'pchilik ekologik muammolarni faqat texnologik vositalar orqali hal qilish mumkin degan fikrga ega. Biroq, bu yondashuv bir tomonlama ekanligini hozirgi kunda sezilib qolyapti, Ekologik vaziyatlarni yaxshilashda texnologik innovatsiyalardan foydalanish odamlarning ilmiy, ekologik, dunyoqarashini o'zgartirtirishni talab qiladi, chunki inson ekologik bilim, madaniyatni, umuman olganda ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirmasdan, tabiatdagi ekologik komponentlarni o'zaro munosababtlarining ekologik jihatlarini bilmasdan tirib mavjud yoki bo'lagak inqirozlarni hal qila olmaydi.

Qayd etilganlarni hisobga olgan holda ekologik ta'limda - inqirozdan chiqishning yagona yo'li ekologik bilim, tafakkur va madaniyatni rivojlantirish ekanligini tushunishga asoslanishi kerak. Ekologik tafakkurining eng yuqori darajasi - bu inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un o'zaro ta'sir uchun bilim, qadriyatlar va ko'nikmalarning kombinatsiyasini ifodalovchi ekologik madaniyatdir. Shunga ko'ra, zamonaviy tadqiqotchilar ekologik inqirozlarni faqat inson va tabiatning uyg'un birga yashashi g'oyasiga asoslangan ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali yengib o'tish mumkinligini ta'kidlaydilar. Inson tabiatni nafaqat moddiy boylik manbai, balki estetik va axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qadriyat sifatida qabul qilishi juda muhimdir [5, 6, 7].

Bizningcha, hozirgi global ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik inqirozlarni oldini olish uchun har bir inson o'zi faoliyat yuritayotgan kishilik madaniyatidan ekologik madaniyatga o'tishi, ekologik madaniyatni milliy va umumbashariy qadriyat darajasiga ko'tarishga erishish orqali tabiatga, atrof-muhitga, ekosistemaning har bir ekologik komponentiga to'g'ri, ilmiy, uyg'un holda munosabatda bo'lish lozim. Tabiat - bizning umumiy uyimiz ekanligini, unga ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lish, uni asrashni, kelajak avlod uchun srashimiz kerakligini hech qachon unutmasligimiz zarur.

Ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida talabalarning hayotning, tiriklikning barcha xususiyatari, ko'rinishlarini anglatish hamda tabiatga nisbatan hissiy va axloqiy munosabatini rivojlantirishning axloqiy va estetik jihatlarini hisobga olishi kerak. Bunda ekologik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan ekologik axloq muhim rol o'ynashini yodda tutish lozim.

Ekologik madaniyat yangi turdagi jamiyatning, ya'ni, unda inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyat, o'z-o'zini hurmat qilish, mas'uliyat va uyg'unlik tamoyillariga asoslangan ekologik jihatdan yo'naltirilgan jamiyatning rivojlanishiga olib keladi. Shunday qilib, ekologik madaniyatni uchta o'zaro bog'liq

kishilik madaniyat elementning, ya'ni, madaniyat turlarining o'zaro kombinatsiyasi sifatida ko'rish mumkin. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Insonning tabiatga munosabat madaniyati - atrof-muhit, tabiat komponentlariga o'zaro hurmat va ehtiyotkorlik bilan ta'sir qilish;

2. Ijtimoiy munosabatlar madaniyati - jamiyat va kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglash;

3. O'zini anglash madaniyati - inson tabiiy muvozanatni saqlashdagi o'z o'rnini va shaxsiy mas'uliyatini hissiy tushunishi lozim [10;10-b].

Qachonki, shu qayd etilgan kishilik madaniyatining uchta elementining o'zaro uyg'unligi va uzviyligi ta'minlangandagina, tabiat va jamiyatni o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi, barqaror taraqqiyotni yo'lga qo'yuvchi to'laqonli ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Ekologik madaniyatning rivojlanish darajasi ta'lim tizimida ta'lim va tarbiya sifatini, shuningdek, shaxsning ekologik savodxonlik darajasini ozida namoyon ettiradi.

Ekologik ta'lim-tarbiya sohasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish, bizga ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini belgilovchi bir qator tamoyillarni aniqlash imkonini berdi. Bunda asosiy e'tiborni oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan fanlar mazmunini ekologiyalashtirish, tizimlilik, uzluksizlik, majmuaviy yondashuv, ekologik savodxonlik, turli darajadagi ekologik muammolarning o'zaro bog'liqligini ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini belgilovchi tamoyillariga qaratish zarurligini aniqladik. Mazkur tamoyillar o'ziga xos mazmun va xususiyatga ega bo'lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin

1. Fanlararo bog'liqlik - ekologik bilimlarni turli akademik fanlarga integratsiyalash, bu ekologik jarayonlarni yaxlit tushunishni ta'minlaydi.

2. Tizimlilik va uzluksizlik - ta'limning barcha bosqichlarida ekologik bilim, ko'nikma, malakalarni va ekologik kompetensiyalarni egallash, ekologik muammolarni izchil o'rganish, tahlil qilish, yechimini topish yo'llarini ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Integratsiyalashgan yondashuv - jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishda intellektual, axloqiy, estetik va hissiy jihatlarning birligini taminlashga erishiladi.

4. Majmuaviy (kompleks) yondashuv - ekologiya va boshqa fanlarni o'qitishga ilmiy, innovatsion va texnologik jarayonlardan birgalikda foydalangan ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish insonlarda ekologik savodxonlikni yuqori darajada rivojlantirishga erishiladi.

5. Turli darajadagi - global, milliy va mintaqaviy darajalardagi ekologik muammolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini tushunishga erishiladi [10;10-b].

Ko`rinib turibdiki, ta'lim muassasaalarida ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning ilmiy-nazariy jihrlarini tadqiq qilish, uni amalga oshirishning metodik tizimini ishlab chiqish pedagogikadagi amaliy-tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog`liq holda amalga oshirish ta'lim jarayonida ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirish uchun muhim zamin bo`lib xizmat qiladi. Bu o`z navbatida ekologik ta'lim konsepsiyasiga muvofiq ravishda insonlarning, xususan talabalarining tabiatga, uning komponentlariga to`g`ri munosabatni tarkib topishiga va undagi ekologik jarayonlarni bilishga, tadqiq qilish orqali tabiatga ijoboy ta'sirni yo`lga qo`yish, yuzaga kelgan ekologik ekologik muammolarni bartaraf etish yo`llarini muvaffaqiyatli ravishda o`zlashtirishga katta imkoniyat yaratadi.

Ekologik ta'limning hayotga tatbiq etilishi alohida amaliy ahamiyatga ega bo`lib, ekologik ta'lim va tarbiya jarayonini inson shaxsining shakllanishi, yaxlitligi, inson va tabiat, jamiyat va koinot birligi nuqtai nazaridan tahli qilinsagina insonlarda ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin. Olimlar tomonidan insonda tabiiy, mustaqil va o`z-o`zini harakatga keltiruvchi kuch mavjud degan qarashni hisobga olgan holda, ta'limning muntazamligi asosida tahsil oluvchi dunyoni anglash va zaruriy bilimlarni egallashda o`zini o`zi faoliyatga undovchi tamoyil nazariyasini shakllantiradi, degan fikrlarni ilgari surgan[8].

Metodist olimlardan I.G.Pestalotsi insonni mukammal mavjudot deb hisoblab, uni tarbiyalashda tabiatga moslik go`yasini ilgari surgan [9]. Unda ta'lim jarayonini inson tabiati xususiyatlariga, uning rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq ravishda tashkil etishni, insonning barcha kuch va qobiliyatlarini uyg`unlikda rivojlantirishni ta'limning asosiy maqsadiga aylanishi lozimligi alohida ta'kidlagan.

Ekologik inqirozlar davrida jamiyatda shaxsni shakllanishida, uni jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lishida atrof-muhit – tabiat, oila, ijtimoiy institutlar, davlat va nodavlat tashkilotlar, davlat siyosati va iqtisodiyoti ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu ekologik ta'lim-tarbiya oldidagi asosiy muammolardan biri bo`lib, uni amalga oshirish ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini atrof-muhitga o`zaro munosabatlarini ekologik ta'lim jarayoniga muvofiqlashtirishda tizimli, majmuaviy yondashuvni talab etadi. Ekologik ta'lim-tarbiya oldida turgan muammoli masalalarini faqatgina bitta ta'lim muassasasi doirasida ko`rib chiqish bir tomonlama qarash bo`lib, bu borada to`g`ri qaror qabul qilishda yetarlicha asosga ega bo`lmay qoladi. Shuning uchun ham ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini majmuaviy ravishda tashkil etishni taqozo qiladi. Ya'ni:

- bog`cha, maktab, politexnik ta'lim, oliy ta'lim muassasalari o`z faoliyatida atrof-muhit bilan bog`liq bo`lgan o`qitish tizimini amalga oshirishni tashkil etishi;

- tahsil oluvchilarda, o`quvchi-talabalarda atrof-muhitga qiziqish va jonli tabiatga mehr ko`rsatish, tabiatning bir bo`lagi sifatda unga to`g`ri munosabatni tashkil etish borasidagi targ`ibot va tashviqotni samaradorligini oshirish uchun zamonaviy dasturlar yaratish;

- o`quvchi-talabalarga nafaqat, ekologik bilimlarni o`rgatish, balki ekoogik muhitning bir bo`lagi va ekosistemalar mahsulotining asosiy iste`molchisi ekanligini anglashi, tabiat, ekosistemalar ularning yashab qolishi uchun, kelajak avlodning barqaror hayotini ta`minlash uchun eng zaruruy vositalar manbai ekanligini tushuntirish;

-tabiat va jamiyat muvozanatini yaxshilash, insonni tabiatga ta`sirini ekologiyalashtirish, ya`ni, tabiat qonunlarini hisobga olgan holda tabiatga munosabatni tashkil qilishni manbalari va amaliy tajriba ishlari natijalarini tahlil qilish va amaliyotda qo`llash;

- talaba-yoshlar ongiga ekologiya va atrof-muhitga muosabatni zamon talablari darajasida tashkil etishni singdirish, mavjud ekosistemalardagi turli darajadagi ekolog muammolarni bartaraf etish, oldini olishda ilg`or xorijiy davlatlar tajribalari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo`llardan foydalanagna holda ularning ijtimoiy, ekologik faolligini oshirish orqali ularda ekologik bilim, tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirish lozim.

Qayd etilganlarni amalga oshirish nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ekologik ta`lim-tarbiya jarayonini ko`zda tutilgan barcha bosqichlarda, ayniqsa oliy ta`lim muassasalarida zamon talabi darajasida tashkil etish yoshlarda ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik ma`naviyatni shakllantirishga yangicha qarashlarni singdirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Ekologik bilim, ekologik madaniyatni o`quvchi-talabalarda shakllantirish, keng xalq ommasining ekologik madaniyat ko`nikmalarga ega bo`lishini ta`minlash usluksizlikni va uzviylikni talab etadi.

Uzluksiz ekologik ta`lim-tarbiya – milliy ta`lim tizimimizni tashkil etuvchi barcha bosqicharini o`zida qamrab oladigan, barcha bosqichlarda ekologik bilimlarni o`rganishni tashkil etish, ekologik madaniyatni shakllantirishni oddiydan-murakkabga hamda ixtisoslik yo`nalishlariga olib boruvch kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko`rsatish muhiti hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik ta`lim-tarbiyani ta`limning barcha turlari va bosqichlarida, o`qitilayotgan fanlar tarkibida integratsion tarzda qo`llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Qayd etilganidek, hozirda “2030-yilgacha bo`lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Prezident qarorining birinchi qismida ta`lim muassasalarida 10 millionga yaqin tahsil

oluvchilrni ekologik madaniyatini shalllantirish, jumladan, oliy ta'lim tizimida 1,9 million nafar talabalarning ekologik madaniyatini yuksaltirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan bo`lib, bunda aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishda qisqa vaqt ichida amaliy jihatdan yuqori ko`rsatkichlarga erishish ko`zda tutilganligining guvohi bo`lamiz. Konsepsiyaning 2-bob, 2-§, 4-qismida "Oliy ta'limtizimi tashilotlarida ekologik madaniyatni yuksaltirish" chora tadbirlari belgilab berildi. Shunga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida "Eko-klub"lar tashkil qilish; "Ekovolontyor talabalar harakatini" yo'lga qo'yish; bakalavr va magistratura bosqichlarining ekologiya yo'nalishlaridagi o'quv adabiyotlarni qayta ko'rib chiqish hamda ularni atrof-muhitni asrab-avaylashga bag'ishlangan mavzular bilan boyitish choralari ko'rish; har bir oliy ta'lim muassasasining veb-saytida talabalar ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan «Ekofaol talabalar» degan alohida bo'lim tashkil etish va unda ekologik targ'ibot ishlarini yoritib borish; har yili talabalar o'rtasida «Ekologiya bilimdoni», «Ekologik madaniyat targ'ibotchisi», «Eng faol ekovolontyor» va «Yilning eng yaxshi ekologiya himoyachisi» kabi turli nominatsiyalar bo'yicha tanlovlar tashkil etishl; talabalarni dolzarb ekologik madaniyat va ekologiya muammolariga bag'ishlangan magistrlik dissertatsiyalari tayyorlashga, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishga keng jalb qilish; yoshlarning ekologiya yo'nalishidagi innovatsion loyihalarini rag'batlantirish maqsadida startap loyihalar tanlovini e'lon qilish; Turli mavzularda ekologik aksiya va ekochempijnatlar o'tkazish, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'limiy dasturlar ishlab chiqish kabi amaliy chora-tadbirlarni bajarish asosiy vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Yuqorida qayd etilgan vazifalar doirasida bizning universitetimizda qam qator amaliy ishlarni bajarilayotganligini aytishimiz mumkin. Universitetimizda "Eko-klub"ni tashkil etilishi, "Ekovolontyor talabalar harakatini" yo'lga qo'yilishi, ekofaol talabalarning ekoploginglar, ekoaksiyalar, ekochempijnatlarda, tanlovlarda faol ishtiroki, "Talabalarda ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusida magistrlik dissertatsiyasi doirasida tadqiqot ishlarini olib boryaotganligimiz bu yerda ekologik ta'lim-tarbiya sohasida ekologik madaniyatni yuksaltish konsepsiyasi doirasidagi ishlarni talab darajasida amalga oshiriyotganligining yaqqol dalilidir.

Xulosa va tavsiyalar. Ekologik ta'lim-tarbiya ekologik muammolarni aniqlash, tahlil qilish, oldini olish, bartaraf etishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim jarayon sanalib, u aniq maqsadga muvofiq, izchil, integratsion, majmuaviy, tizimli va uzluksiz ravishda ekologik bilimlarni egallashga yo'naltirilgan diaktik jarayon hisoblanadi. O'quvchi-talaba tomonidan egallangan ekologik bilimlar atrof-mihit va tabiatni muhofaza qilish borasida yuzaga kelayotgan faoliyat birligi ekologik

ongni, ekologik faoliyatni, ekologik madaniyatni shakllantirilishiga olib keladi. Insonlar egallagan kishilik madaniyatini ekologik madaniyatga aylanishi, har bir jamiyat a'zosini ekolog bo'lish darajasiga olib keladi. Bu insonni tabiatga, atrof-muhitga uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda, to'g'ri va ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga olib keldi.

Mazkur jarayon esa yuqorida qayd etilgan ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonini belgilovchi bir qator tamoyillar asoslangan holda fan mazmunini va inson faoliyatini ekologiyalashtirish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning didaktik ta'minotini yangidan-yangi turlarini yaratishni talab etadi. Buning uchun ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limning turli metodlari, pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'qitish vositalarining darslikdan tashqari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter va smart vositalardan foydalanish imkoniyatini oshradiga dasturiy vositalar yaratish lozim.

Shunday qilib, ekologik ta'lim-tarbiyani sifat va samaradorligini ortirilishi, talabalarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirilishi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim asos hisoblanadi. Bu talabalarga nafaqat kasbiy bilim, malaka va kompetentsiyalarni, balki hayotning poydevori sifatida tabiatga, uning boyliklariga, ongli munosabatni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa hurmat, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish va himoya qilishni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimida ekologik bilim va madaniyatni rivojlantirish nafaqat ekologik bilimdonlikni oshiradi, balki insonning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Ekologik savodxon, ekologik madaniyatga ega mutaxassis tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va kelajak avlodlar uchun biosferani saqlab qolishga qaratilgan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga qodir eko-madaniyatli inson darajasiga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun. 09.12.1992 yildagi 754-XII-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.05.2025-yildagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. PQ-184-son,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2026-yildagi "“Eko-madaniyat” umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-110-son Qarori

4. L.A.Muxtarova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Monografiya. 2023. 96 bet.
5. Зубаков В.А. Прошлое и будущее человечества глазами эколога. // *Общественные науки и современность*, 1997, № 3, С. 114-117. 3.
6. Лихачёв Д.С. Экология культуры // *Воспоминания. Раздумья. Работы разных лет*. В 3-х т., Т. 2. – СПб.: Издательство «АРС», 2006. – С. 309-325.
7. Моисеев Н.Н. Думая о будущем, или напоминание моим ученикам о необходимости единства действий, чтобы выжить. // В кн.: Моисеев Н.Н. *Заслон средневековью*. – М.: Тайдекс Ко, 2003. – 312 с.]
8. Коменский Я. А. Великая дидактика /- М.: Книга по Требованию, - 2012 S.247-248.]
9. Песталоцци И.Г. Избранные педагогические сочинения в 2-х томах / . - М.: Педагогика. 2012. , -С. 127.].
10. Ахмедова Н.М. Экологическое образование в высших технических учебных заведениях, как базовый элемент экологической культуры. *Universum: Психология и образование: электрон. научн. журн.*10-стр. 2025. 11(137). URL: <https://7universum.com/ru/psy/archive/item/21185> (дата обращения: 30.05.2026).
11. <https://www.un.org/ru/ga/unep/index.shtml>
12. www.Lex.uz